

Globalashuv Sharoitida Yoshlar Ma'naviyati

Toliboyeva Kamola Sherzod qizi

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Stomatologiya-2 fakultiteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada globalashuv jarayonining yoshlar ma'naviyatiga ta'siri falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Globalashuvning ijobiy jihatlari sifatida dunyoqarashning kengayishi, ilm-fan va texnologiyalarga tezkor kirish imkoniyati hamda chidamlilikning kuchayishi ko'rsatib o'tiladi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlarning yemirilishi, ma'naviy bo'shliq muammosi kabi salbiy oqibatlar ham yoritiladi. Maqolada umuminsoniy va milliy qadriyatlar o'rtasidagi dialektika, yoshlar ongida global va milliy identitet uyg'unligi masalalari falsafiy tahlil qilinadi. Xulosa qismida globalashuv yoshlar ma'naviyatiga ham imkoniyat, ham sinov ekanligi ta'kidlanib, yoshlar uchun tanqidiy fikrlash, milliy merosni zamonaviy talqin qilish va axborot madaniyatini shakllantirish zarurligi qayd etiladi.

Kalit so'zlar: Globalashuv, yoshlar, ma'naviyat, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, identitet, falsafa, axborot madaniyati, iste'molchilik, tolerantlik, madaniyatlararo muloqot, milliy meros, zamonaviylik, gibril idintitet, madadiy kod, axloqiy me'yorlar, ong, ta'lim, san'at, adabiyot, ijtimoiy mas'uliyat.

Kirish

Globalashuv jarayoni XXI asrning eng muhim falsafiy va ijtimoiy hodisalaridan biri sifatida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilinmoqda. Bu jarayon iqtisodiy, siyosiy, madaniy va axborot sohaslarida chuqur ta'sir ko'rsatib, ayniqsa yoshlar ongini shakllantirishda muhim omilga aylanmoqda. Yoshlar ma'naviyati — milliy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va umuminsoniy tamoyillar uyg'unligi — globalashuv davrida eng ko'p muhokama qilinadigan masalalardan biridir. "Yoshlarning tarbiyasi – millatning tarbiyasidir. Chunki bugungi yoshlar ertangi kun egalaridir[1].

Zamonaviy axborot texnologiyalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar tufayli yoshlar turli madaniyatlar, urf-odatlar va g'oyalar bilan tezkor tanishish imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda. Globalashuvning ijobiy jihatlardan biri – bilim olish imkoniyatlarining kengayishidir. Chet tillarini o'rganish, xorij tajribasidan foydalanish, yangicha fikrlashni shakllantirish yoshlarning rivojiga xizmat qilmoqda. Ilm-fan, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yo'nalishlarga qiziqish kuchayib, dunyoqarashi kengaygan yoshlarning kelajakka bo'lgan ishonchi ortmoqda. Prizedentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich fikricha, Yangi O'zbekiston taraqqiyoti eng avvalo yosh avlodning ma'naviy yetukligi, zamonaviy bilimlarga chanqoqligi va milliy o'zligini anglagan holda global dunyoda faol bo'lishiga bog'liqdir[2].

Biroq globalashuv jarayonining o'sib kelayotgan yoshlar ma'naviyatiga salbiy tomonlari ham yo'q emas. Yot g'oyalar, zararli axborotlar, axloqiy me'yorlarga zid targ'ibotlar yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Milliy qadriyatlarni e'tiborsiz qoldirish va begona turmush tarziga ko'r-ko'rona taqlid qilish yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, milliy identitetning yemirilishiga olib kelishi mumkin.

Shu bois yoshlar ma'naviyatini mustahkamlash dolzarb vazifadir.

Oila, maktab, mahalla va jamiyat birgalikda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashi zarur. Milliy o'zlik "ichki ma'naviy tayanch" va globallashuv sharoitida aynan shu tayanchning mustahkam bo'lishi yoshlarni ma'naviy bo'shliqdan asrashni taminlaydi[3]. Yoshlar ongida milliy o'zlikni mustahkamlash jarayoni tarixiy xotirani tiklash, ma'naviy merosni o'rganish va zamonaviy bilimlar bilan uyg'unlashtirish orqali amalga oshadi.

Globallashuv yoshlar ongida gibrid identitet — ya'ni, milliy va global qadriyatlarning uyg'unlashuvi orqali shakllanayotgan identitetni yuzaga keltiradi. Bu jarayonda yoshlar bir tomondan milliy qadriyatlar va tarixiy xotirani saqlashga, boshqa tomondan esa dunyo miqyosidagi madaniyatlar bilan tanishishga intiladi. Shu nuqtai nazardan, madaniy kodlar — urf-odatlar, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy odatlar majmui — yoshlar ongida identitetning barqarorligini ta'minlaydi.

Globallashuvning normativ-aksiyologik ta'siri esa, yoshlar uchun qadriyatlar tanlovini talab qiladi: ular bir tomondan universal umuminsoniy qadriyatlarni qabul qilishi, boshqa tomondan milliy o'zlikni yo'qotmasligi zarur. Bu jarayon falsafiy nuqtai nazardan dialektik xarakterga ega bo'lib, yoshlar ongida global va milliy identitet o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu tarzda, globallashuv yoshlar ma'naviyatini sinov bilan birga imkoniyatga ham aylantiradi.

Xulosa

Globallashuv yoshlar ma'naviyatiga bir vaqtning o'zida imkoniyat hamda sinov sifatida ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, yoshlar uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, milliy merosni zamonaviy talqin qilish va axborot madaniyatini shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Falsafiy yondashuv shuni ko'rsatadiki, insoniyat taraqqiyoti uchun umumiy qadriyatlarni qabul qilish zarur, lekin milliy o'zlikni saqlash ham muhimdir. Yoshlar kelajak jamiyatining ma'naviy tayanchi bo'lib, ularning ongini to'g'ri shakllantirish globallashuv davrida eng asosiy vazifa hisoblanadi. Dunyo axborot maydonidagi ochiqlik, internet, ommaviy madaniyat va reklama oqimi eng avvalo yoshlar ongiga ta'sir qiladi. Shuning uchun ma'naviy immunitet kuchli bo'lishi zarur[4].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy A. *Turkiy guliston yoxud axloq*. Toshkent: Ma'naviyat, 1992.
2. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. Toshkent: O'zbekiston, 2021.
3. Quronov D. *Globallashuv va milliy o'zlik*. Toshkent: Fan, 2012.
4. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Юлдашева, Л. С., and Д. М. Абдурахимова. "ЖАМИЯТДА ОДОБ-АДЛОК МЕЪЁРЛАРИНИ БУЗИЛИШИНИНГ ИЖТИМОЙ ОМИЛЛАРИ." *Журнал Социальных Исследований* 4.4 (2021).
6. Yuldasheva Lola Sagdullaevna. (2025). THE PATH TO PERFECTION: KNOWLEDGE AND MORALITY AS THE FOUNDATION OF PERSONALITY – A PHILOSOPHICAL ANALYSIS. *Journal of Applied Science and Social Science*, 15(10), 1426–1429. Retrieved from <https://www.internationaljournal.co.in/index.php/jasass/article/view/2248>
7. Sadullaevna, Yuldasheva Lola, and Abdukurimova Gulchekhra Baratovna. "Logical Principles in the Doctrine of Ibn Sina and Their Formation Characteristics." *European Scholar Journal* 2.4 (2021): 208-211.
8. Юлдашева, Л.С., and Абдураимов, Ж.. "ИБН СИНОНИНГ ФАЛСАФИЙ АСАРЛАРИДА ИНСОН КАМОЛОТИ" *International scientific journal of Biruni*, vol. 3, no. 1, 2024, pp. 133-139.